

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

G‘AFUROV BEHRUZ TOLIB O‘G‘LI

**HARBIY XIZMATCHILARNING FARZANDLARINI BARKAMOL
SHAXS ETIB TARBİYALASHNING IJTIMOY FALSAFIY OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

G‘afurov Behruz Tolib o‘g‘li

Harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning
ijtimoiy falsafiy omillari.....5

Гафуров Бехруз Толиб угли

Социально-философские факторы воспитания детей военнослужащих
как всесторонне развитых личностей.....23

Gafurov Behruz Tolib ogli

Socio-philosophical factors of upbringing children of military personnel as
comprehensively developed individuals45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

G‘AFUROV BEHRUZ TOLIB O‘G‘LI

**HARBIY XIZMATCHILARNING FARZANDLARINI BARKAMOL
SHAXS ETIB TARBİYALASHNING IJTIMOY FALSAFIY OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/Fal1302 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidov Ixtiyor Mizrabovich
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

To‘ychiyev Berdiqu To‘raqulovich
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “28” dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (556 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “14” dekabr kuni tarqatildi.

(2024 yil “14” dekabr dagi 30 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi global o'zgarishlar va keskin raqobat davri, yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni, ular ongiga tinchlik va totuvlikni asrab-avaylash, ezgu g'oyalar asosida birlashishni talab etmoqda. Bunday sharoitlarda harbiy xizmatchilarning farzandlari doimiy ko'chib yurish va yangi muhitga moslashish zarurati bilan yuzma-yuz keladi va ularning shaxs sifatida rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi, chunki yangi muhitlarga moslashish kelajakdagi shaxsiy muvaffaqiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan harbiy xizmatchilar farzandlarini yangi madaniy va ijtimoiy muhitga moslashishi, ushbu jarayonda shaxsning barkamolligiga qaratilgan tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish, harbiylarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy muassasalarida harbiy xizmatchilar oilalarida tarbiya jarayonining o'ziga xosligi, ijtimoiy adaptatsiya jarayoni, harbiy oilalarning ijtimoiy manfaatlari, farzand tarbiyasida ijtimoiy himoya mexanizmlari va ta'lim imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Harbiy xizmat nufuzini va harbiy xizmatchilarning kasb mahoratini oshirish, ularning ijtimoiy muhofazasi masalalari doimo diqqat markazida bo'lib, uni ta'minlashning zamonaviy me'yor va talablari takomillashtirilmoqda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun zamonaviy ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Shu bois, harbiy xizmatchilarning farzandlarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni namoyon bo'lish xususiyatlarini, harbiylarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishning ilmiy-amaliy dasturini amalga oshirish va uni yuksaltirishning tashkiliy va uslubiy qo'llab-quvvatlash yo'llarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish hamda har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ishlar izchil davom ettirilmoqda. "Yangi O'zbekistonga xalqimizning orzu-intilishlarini teran anglaydigan, unga sadoqat bilan xizmat qilishni muqaddas burch, deb biladigan, bilimdon va qat'iyatli rahbarlar zarur. Davlat xizmatiga yuksak intellektual salohiyat va yangicha tafakkurga ega, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va o'z xalqiga sodiq, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilishga qaratilgan kadrlar siyosatini davom ettiramiz"¹. Shuning uchun harbiy oilalarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini rivojlantirishning istiqbolli ilmiy paradigmatlari hamda zamonaviy axloqiy konsepsiyalarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", – 2023. – B.93.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-maydagi PQ-3726-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 12-sentyabrdagi PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida” 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son “Yoshlarni harbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi Tadqiqot ishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlaridagi yoshlar axloqiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi g‘oyalari ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi².

Harbiy xizmatchilar, ularning farzandlarini tarbiyalash muammolari, uning turli aspektlarda namoyon bo‘ladigan xususiyatlari xorijiy mamlakat olimlaridan J.Devey, A.Adler, D.Kolb, J.Piaget, J.Pestalozzi, M.Montessori, G.Gerouks, E.Erikson, K.Mangeym, D.Bell, J.Liotar, J.Bodriyar va F.Djeymisonning izlanishlarida ochib berilgan³.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.– Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 592; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.508; Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 400; Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. O‘zbekiston, 2020. – B. 456

³ John Devey. Democracy And Education. - B.,1997. - 378 p.; Adler A. Guiding the child (psychology revivals): On the principles of individual psychology. 1st ed., - N., 2013. - P.102–108.; David Kolb. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development - N., 1984. - P. 98–101.; Jean Piaget. The Origins of Intelligence in Children - V., 1952. - P. 74–76.; Johann Heinrich Pestalozzi. How Gertrude Teaches Her Children - B., 2001. - P. 203–204.; Maria Montessori. The Montessori Method - M., 1912. - P. 318–320.; Georges Geroux Rethinking Critical Pedagogy. - B.,1997. - 378 p.; Erik Erikson. “Childhood and Society” - B.,1950. - 235 p.; Karl

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida harbiy xizmatchilar farzandlari ongiga ma'naviy qadriyatlarni chuqur singdirishdagi o'ziga xos qadriyatlar tizimi va davlat, Vatan va xalqning himoyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish borasidagi muhim ilmiy izlanishlar A.B.Neroboyev, G.G.Bogovich, Y.V.Smirnov, L.A.Akulova, T.B.Sirotina, S.I.Muzyakov, S.I.Dyakov, D.V.Romanov, S.Y.Grigorov va boshqa shu kabi olimlar tomonidan olib borilgan⁴.

Mamlakatimizda buyuk mutafakkir allomalarimizning va sarkardalarimizning vatanparvarligini o'ziga xos ma'naviy-axloqiy ideal sifatida ulug'lashga, harbiy pandnomalarning ma'naviy-axloqiy mazmunini targ'ib etishga va yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hamda zamonaviy ta'limning yoshlarni bilim olishidagi ahamiyatiga doir tadqiqotlar B.E.Ergashev, B.M.Ne'matov, A.D.Redjaboyev, R.Y.Kurbanov, E.T.Kalkanov, Z.Alimardonov, K.Usmanov, I.M.Saidov, S.A.Choriyev, B.T.Tuychiyev, N.Safarova, B.To'rayev, K.Shodmonov, Sh.Madayeva tomonidan amalga oshirilgan⁵.

Mannheim. "Ideology and Utopia" - В.,1929. - 194 p. Белл Д. Эпоха разобщенности : размышления о мире XXI века / Даниел Белл, Владислав Иноземцев. - Москва : Свободная мысль : Центр исслед. постиндустриального, 2007. - 303 с. Лиотар Ж.Ф. Состояние постмодерна ; пер. с фр. Н. А. Шматко. - Санкт-Петербург: Алетея, 2013. - 159 с. Бодрийяр Ж. Фатальные стратегии. - Москва : РИПОЛ классик, сор. 2017. - 285 с. Джеймисон Ф. Постмодернизм или Культурная логика позднего капитализма. - Москва: Изд-во Ин-та Гайдара, 2019. - 795 с.

⁴Неробоев А.Б. Педагогические условия духовно-нравственного воспитания курсантов военного вуза: диссертация ... кандидата педагогических наук. - Кострома, 2006. - 190 с.; Богович Г.Г. Противоречия формирования духовных ценностей офицера современной российской армии и их разрешение: Социально-философский анализ: автореферат дис. ... кандидата философских наук. - Москва, 2000. - 21 с.; Смирнов Е.В. Духовные ценности в военно-профессиональном сознании офицерского корпуса России: социально-философский анализ : автореферат дис. ... кандидата философских наук. - Москва, 2008. - 23 с.; Акулова Л.А. Социально-философские основания реализации эстетической функции языка в формировании духовной культуры военнослужащих военных вузов : диссертация ... кандидата философских наук. - Москва, 2003. - 210 с.; Сиротина Т.Б. Духовный выбор личности военнослужащего современной Российской армии: сущность, факторы влияния и приоритеты : автореферат дис. ... кандидата философских наук. - Москва, 2017. - 21 с.; Музыков С.И. Ценностные основания воинской деятельности : социально-философский анализ: диссертация ... доктора философских наук. - Москва, 2008. - 337 с. Дяков С.И. Воспитание духовных потребностей будущих офицеров в образовательном процессе военного вуза: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. - Санкт-Петербург, 2013. - 26 с.; Романов Д.В. Формирование духовно-ценностных ориентаций у курсантов в воспитывающей среде военного вуза: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. - Кострома, 2009. - 22 с.; Григоров С.Ю. Технологии социально-культурной деятельности как фактор формирования духовно-нравственных качеств личности курсантов военных училищ : диссертация ... кандидата педагогических наук. - Тамбов, 2008.-181с.

⁵ Ergashev B.E., Ne'matov B.M. Ma'naviy-axloqiy va harbiy tarbiyani takomillashtirish yo'llari (O'quv qo'llanma). -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2004.; Redjaboyev A.D. Yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni, akademik I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan harbiy vatanparvarlik g'oyalari asosida). Avtoref. dis. ... pedagogika fan. nom. -Toshkent, 2004. - B.19. Kurbanov R.Y. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni: Dis. fals. fan. nom. -Toshkent. 2008. -B. 78-81.; Kalkanov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Avtoref. dis. ...fals.fan.nom. -Toshkent, O'zMU. 2011.; Alimardonov Z.Sh. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy xizmatchilar farzandlarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2019. - 97 b.; Usmonov K. Harbiy vatanparvarlikning axloqiy mezonlari va tarbiyaviy asoslari //Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. -Toshkent, 2016. -№ 4.- B. 114-117. Saidov I.M.. Yangi O'zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy falsafiy omillari // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Farg'ona, 2023. - 52 b.; Туйчиев Б.Т.. Политическая культура и демократизация общества (социально-философский анализ). Ташкент: НУУз, 2010.; Safarova, N. O. Philosophy of the algorithm of Abu Raikhan Beruniy. // Theoretical & Applied Science. 12(104) 2021.- Pages 419-421.; Тўраев Б.О. Абу Райхон Беруний / «Мутафаккирлар» илмий-оммабоп рисолалар туркуми. - Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2009. - 96 б.;

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar muammoning o'rganilganlik darajasini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjudligi va shakllanishining bir qator jihatlarini chuqur umumiy nazariy tushunish bilan tavsiflanadi hamda uslubiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq, tan olish kerakki, zamonaviy jamiyatda harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash omillari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Ushbu dissertatsiyada ana shu muammoga, uning ahamiyati va ijtimoiy-falsafiy omillarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" (2022-2026 y.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy omillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

barkamol shaxs tushunchasining mazmuni, tarkibi va uni shakllantirish shart-sharoitlari, omillarini tadqiq etish;

shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni voyaga yetkazish yo'llariga oid nazariy-falsafiy qarashlarni tahlil etish;

harbiylarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining o'rini, bu boradagi nazariy-uslubiy muammolar ko'lamini asoslash;

harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yuksaltirish mexanizmlari va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlashtirish;

zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish omili sifatida tadqiq etish;

harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida tarbiyalash tizimi samaradorligini oshirish yo'llari, ilmiy-amaliy mezonlarini ishlab chiqish, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini asoslash;

Yangi O'zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli ilmiy paradigmalardan hamda zamonaviy axloqiy konsepsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash jarayoni, bu boradagi islohotlar tanlab olingan.

Шадманов К.Б. К вопросу конструирования стратегических направлений развития образования// Конструирование стратегических приоритетов развития образования как ответа на вызовы третьего тысячелетия. Материалы 11 Всероссийской научно-практической конференции 1-2 ноября 2022 г - Уфа, 2022, - С. 206-210; Мадаева Ш.О. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари. Фалсафа фанлари докторлиги диссертацияси. – Тошкент, 2009. – 260 б; Isayeva D. The role of the mass media in forming the information space in Uzbekistan. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), (2022). 953–957. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ND6BZ>.; Чориев Анвар, Чориев Санжар. Ренессанс даври. Европа фалсафаси. - Тошкент: «Тафаккур қаноти», 2015. – 112 б.

Tadqiqotning predmetini harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini, ularni amaliyotga tatbiq etishning o'ziga xos muammolarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

barkamol shaxsning intellektual rivojlanish, axloqiy yetuklik, jismoniy chiniqqanlik va ijtimoiy faollik omillari harbiy xizmatchilarning farzandlarida vatanparvarlik, intizomlilik, o'zi va boshqalarga nisbatan talabchanlik, mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash va o'ziga yuqori talab qo'yish qobiliyatini shakllantirishi, harbiy hayotning qat'iy tartib-qoidalari va intizomi farzandlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish vositasi ekanligi aniqlashtirilgan;

Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan harbiylarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishda chidamlilik, yetakchilik qobiliyatlarini va harbiy madaniyatni tushunishni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim dasturlarini yaratish, ijtimoiylashuv va fuqarolik hayotiga moslashishini ta'minlash uchun mahalliy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish, resurslar va dasturlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash kabi tashkiliy-uslubiy asoslari mantiqiy isbotlangan;

harbiy oilalarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini rivojlantirishning ma'naviy va ruhiy qadriyatlarining birlamchiligi, ma'naviyat va ideal (ijtimoiy idealizm), biologik, psixologik va tabiiy qonuniyatlar bilan bog'liqlik, jismoniy va aqliy rivojlanish, tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish (ijtimoiy naturalizm) va moddiy ishlab shiqarish va iqtisodiy rivojlanishga bog'liqlik, mehnat faoliyati, iqtisodiy samaradorlik (ijtimoiy materializm) kabi istiqbolli ilmiy paradigmalari ochib berilgan;

harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimining samaradorligini baholashda o'z-o'zini anglash, huquqiy savodxonlik kabi mezonlar va zamonaviy ta'lim, insonparvarlik darajasi kabi diagnostik va korreksion ko'rsatkichlari asoslangan va uni yuksaltirish imkoniyatlari optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“harbiy xizmatchilarning farzandlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyasi”, “harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari” kabi tushunchalarning dialektik tahlili asosida shaxsning bilim olish, yangilikka ochiqlik, ijodiy tafakkur (intellektual), ma'naviy va axloqiy me'yorlarga sodiqlik, mas'uliyat (axloqiy), sog'lom va kuchli bo'lishga intilish (jismoniy) jamiyatda faol ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonlarga hissa qo'shish va o'z fikrini erkin ifodalash (ijtimoiy) elementlari o'zaro bir-birini to'ldirishi, ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltirishi asoslab berilgan;

harbiy xizmatchilar farzandlarida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarda dezoriyentatsiya va yuqori darajadagi bezovtalik kabi muammolarni bartaraf

etishda barkamol shaxs etib tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy asoslariga qo'yiladigan talablarning individual, guruhli yoki differensial yondashuvlar ishlab chiqish, insonparvarlik g'oyalari asosida shaxsiy rivojlanishga yordam berish, ta'lim va ijtimoiy hayot bilan integratsiya qilgan holda pedagogik yordam ko'rsatish kabi talablari takomillashtirilgan;

O'zbekistonda barkamol shaxsni tarbiyalashning milliy modeli milliy an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar, oila va ta'lim tizimining muhim yo'nalishlariga asoslanganligi va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan komil insonlarni yetishtirishda Vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan, yuqori ma'naviyatli, aqliy va jismoniy rivojlanishiga erishgan, yetuk insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi qiyosiy-tarixiy tamoyil asosida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalashda, o'z-o'zini tarbiyalash asosida faollashtirish yo'llarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, ma'naviy-axloqiy kompetentlik darajasini belgilovchi ijtimoiy-madaniy indikatorlar, jarayon modeli, ushbu modelning harbiy-axloqiy tarbiya asoslari, uni amaliyotda qo'llashning shart-sharoitlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarda metodologik asos sifatida va madaniy-ma'rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, ijtimoiy faollikni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi markazlar, ma'naviy-madaniy tarbiya o'choqlarining o'zaro hamkorlikda, ishonch va hamjihatlik ruhida qonun ustuvorligi, tinchlik-osoysishtalikni yanada mustahkamlashga qaratilgan faoliyatida, Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish va jamiyatda harbiylik kasbiga hurmat va e'tiborni yanada kuchaytirish ishlarini tizimli tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yuksaltirish bo'yicha ishlab chiqilgan model, tayanch, shaxsiy kompetensiyalar tizimidan harbiy sohalarida mutaxassislarni tayyorlashda foydalanilishi mumkinligi, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha boshliq va komandirlarning o'rinbosarlarini ish tajribasini boyitishga, yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, ta'lim muassasalarida uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini

amalga oshirish bo'yicha "chora-tadbirlar dasturi"ni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatda harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning ijtimoiy falsafiy omillarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

barkamol shaxsning intellektual rivojlanish, axloqiy yetuklik, jismoniy chiniquqanlik va ijtimoiy faollik omillari harbiy xizmatchilarning farzandlarida vatanparvarlik, intizomlilik, o'zi va boshqalarga nisbatan talabchanlik, mehnatsevarlik, vaqtni qadrlash va o'ziga yuqori talab qo'yish qobiliyatini shakllantirishi, harbiy hayotning qat'iy tartib-qoidalari va intizomi farzandlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish vositasi ekanligiga doir nazariy mulohazalar "60220500 – Falsafa (yo'nalishlar bo'yisha)" bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari mazmuniga singdirilgan hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 721913-sonli guvohnomaga muvofiq "Falsafa" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 5-iyuldagi 02/02-02-60-son ma'lumotnomasi). Natijada, harbiy xizmatchilarning farzandlarini o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishi va bilimlarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Qurolli Kushlar tizimida xizmat qilayotgan harbiylarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishda chidamlilik, yetakchilik qobiliyatlarini va harbiy madaniyatni tushunishni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim dasturlarini yaratish, ijtimoiylashuv va fuqarolik hayotiga moslashishini ta'minlash uchun mahalliy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish, resurslar va dasturlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash kabi tashkiliy-uslubiy asoslariga doir yangiliklardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" amaliy loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 18-oktabrdagi 04/11-9043-son ma'lumotnomasi). Natijada, harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy asoslariga qo'yiladigan talablarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

harbiy oilalarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimini rivojlantirishning ma'naviy va ruhiy qadriyatlarining birlamchiligi, ma'naviyat va ideal (ijtimoiy idealizm), biologik, psixologik va tabiiy qonuniyatlar bilan bog'liqlik, jismoniy va aqliy rivojlanish, tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish (ijtimoiy naturalizm) va moddiy ishlab shiqarish va iqtisodiy rivojlanishga bog'liqlik, mehnat faoliyati, iqtisodiy samaradorlik (ijtimoiy materializm) kabi istiqbolli ilmiy paradigmalariga doir nazariy mulohazalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Sharqiy harbiy okrugining 2023-2024 o'quv yilidagi rejasiga muvofiq "okrug tasarrufida va uning hududida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga va ularning oila a'zolariga ijtimoiy g'amxorlik ko'rsatish va ularning farzandlariga ma'naviy ozuqa berish"da hamda Toifalangan obyektlarni

qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasining 2023-2024 yil tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar rejasining III va VI bandlarini ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Sharqiy harbiy okrugining 2024-yil 14-avgustdagi 52/4/533-son hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligining 2024-yil 27-iyuldagi 19-son ma'lumotnomalari). Natijada, mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalash tizimining samaradorligini baholashda o'z-o'zini anglash, huquqiy savodxonlik kabi mezonlar va zamonaviy ta'lim, insonparvarlik darajasi kabi diagnostik va korreksion ko'rsatkichlari asoslangan va uni yuksaltirish imkoniyatlariga oid nazariy mulohazalar Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Yoshlar kelajagi", "Muqaddas bursh", "Vatan himoyasi" kabi ko'rsatuvlari va "Diyor-24" informatsion dasturining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-02/137-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'tkazilgan loyiha va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar badiiy-ilmiy jihatdan mukammallashgan, bugungi yosh avlodni va harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini dunyoqarashini hamda ma'naviyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Barkamol shaxsni shakllantirish muammolarini tadqiq qilishning nazariy-metadologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida barkamol shaxs tushunchasining mazmuni, tarkibi va uni shakllantirishning

ijtimoiy ahamiyati, barkamol shaxsni shakllantirish shart-sharoitlari va omillari, barkamol shaxs va uni voyaga yetkazish yo'llari haqidagi nazariy-falsafiy qarashlar rivoji ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Barkamol shaxs tarbiyasi tushunchasi falsafiy, siyosiy, ma'no-mazmunga ega bo'lib, u siyosatning asosiy elementlari, avvalo siyosiy ijtimoiy institutlarda munosabatlar va jarayonlardagi tub islohotlarni o'z ichiga oladi. Barkamol shaxs uchun vatanparvarlik, yurtparvarlik zarur sifat ekanligini bilsak, avvalo ota-onalarni farzandlarning ko'z o'ngida o'z oilasi, mahallasi, shahri yoki qishlog'i, yurti qadriyatlariga sadoqatli, kasbida mukammal usta, istiqbolga ishongan, vatanparvar timsolida gavdalantirishga, birinchi navbatda voyaga yetmagan farzandlar bilan ishlashga, ularni tarbiyalashga o'rgatishimiz, ushbu masalaga bag'ishlangan ommabop risola va qo'llanmalar yaratishimiz kerak⁶.

Tadqiqotda "barkamol shaxs" tushunchasini tahlil qilishda ontologik, gnoseologik va ekzistensial yondashuvlar tahlil etilgan. Har bir yondashuv bu tushunchani o'ziga xos tarzda sharhlaydi va uning mohiyatini ochib beradi. Ontologik nuqtai nazardan, "barkamol shaxs"ning mohiyati mavjudlikning umumiy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Ontologiya mavjudlikning tabiatini, u qanday shakllanishini va uning asosiy tamoyillarini tahlil qiladi. Barkamol shaxsning ontologik mohiyati – bu shaxsning mavjudligi va uning jamiyatdagi o'rni haqidagi tushunchadir. Barkamol shaxs butunlay rivojlangan mavjudot sifatida ko'riladi, uning jismoniy, ruhiy va ma'naviy jihatlari bir butunlikni tashkil etadi. Bu yerda shaxsning yashashning ma'no-mazmunini izlash, o'zini amalga oshirish, o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis namoyon qilish istagi muhim hisoblanadi. Ontologik yondashuv barkamol shaxsni jamiyat va tabiat bilan uyg'unlikda yashashga intiluvchi, o'zining asosiy maqsadi va vazifasini anglab yetgan shaxs sifatida talqin qiladi. Bu jarayon shaxsning tabiiy va ijtimoiy kuchlarini uyg'unlashtirish bilan bog'liq.

Dissertant fikricha, barkamol shaxs nafaqat shaxsiy yutuqlarni ko'zlab harakat qiluvchi, balki jamiyat va davlat rivojiga o'z hissasini qo'shadigan shaxs bo'lib, u o'z kasbiy va ma'naviy jihatdan ham komil bo'lishi kerak. Shunday insonlar, vatanparvarlik, jasorat va iroda kabi xususiyatlar bilan birgalikda, jamiyatdagi boshqalarga ham o'rnak bo'lib, ularni yuqori maqsadlar va qadriyatlar sari yetaklashlari muhimdir. Barkamol shaxslar jamiyatning barcha sohalarida taraqqiyotga yordam beradigan asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, ta'lim, ma'rifat va ijtimoiy madaniy muhit muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, mamlakatning mustaqillik yillaridagi demokratik jarayonlar ham yoshlarni ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalashda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Demokratik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularning insoniy huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, barkamol shaxs tarbiyasi nafaqat ilmiy va ta'lim asosida, balki milliy qadriyatlarni demokratik prinsiplar bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu

⁶ Qo'chqarova M., Yunusova Z. Barkamol shaxs tarbiyachisi sifatida ota-ona mas'uliyatini oshirish. –T., 2022. – B.56.

jarayonda shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, uni har tomonlama rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun zarurdir.

Dissertatsiyada barkamol shaxs shakllanishidagi qarashlarning falsafiy-konseptual asoslarini tadqiq etishda shaxs tafakkurining taraqqiyot bosqichlarini chuqur o'rganish o'ziga xos ilmiy-metodologik ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu tushuncha jamiyat rivoji va taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. "Barkamol shaxs" deganda, axloqiy, ma'naviy, jismoniy va intellektual jihatdan rivojlangan, shuningdek, o'z jamiyatiga foyda keltirishga qodir shaxs tushuniladi.

Barkamol shaxslarning shakllanishi jamiyatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ilmiy va madaniy merosni boyitishga, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishga va ilm-fan yutuqlarini amalda qo'llashga qodir bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Barkamol shaxsning shakllanishida milliy va vatanparvarlik tuyg'ulari muhim rol o'ynaydi. Ular jamiyatdagi milliy qadriyatlarni himoya qilishga va yosh avlodlarga yetkazishga intiladi. Bu esa milliy o'zlikni anglash va mustaqil davlat g'oyalarini mustahkamlashda ahamiyatli hisoblanadi. Shaxs ma'naviy barkamolligi mezonlaridan yana biri - huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyatga ega bo'lish hisoblanadi. Huquqiy madaniyat bu - qonunlarni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta'minlash, har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqaradigan mezondir.

Dissertant "Barkamol shaxs" tushunchasi nafaqat shaxsiy rivojlanishning bir qismi, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi mumkinligini e'tirof etgan. Shaxsning axloqiy, jismoniy va intellektual rivojlanishi uning jamiyatda faol va ma'suliyatli o'rin egallashiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday shaxslar jamiyatda tinchlik, hamjihatlik va taraqqiyotning muhim tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Barkamol shaxslar shakllanishi esa, nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari ta'lim va tarbiyasini qo'llab-quvvatlash davlatning harbiy xizmatchilarga bo'lgan mas'uliyatini anglatadi. Bu ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun muhim, chunki harbiy xizmatchilar jamiyat xavfsizligi yo'lida shaxsiy manfaatlarini qurbon qilishga tayyor. Ta'limga e'tibor berish davlat tomonidan harbiy oilalarga berilgan kafolatlarning bir qismi sifatida qaraladi. Bu nafaqat xizmatchilarning farzandlari, balki jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Harbiy xizmatchilar farzandlarining ta'lim va tarbiyasiga investitsiya qilish nafaqat ijtimoiy adolat, balki insoniy kapitalni rivojlantirish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi kelajakda jamiyatga qo'shadigan hissalarini oshiradi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, davlat harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga e'tibor qaratishi orqali ularning qilgan qurbonliklarini tan oladi. Bu insoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Harbiy xizmatchilarning farzandlariga ko'rsatiladigan yordam falsafiy jihatdan jamiyatning ma'naviy mas'uliyatini anglatadi. Harbiy xizmatni qadrlash jamiyatning birdamligini va umumiy manfaatlariga sodiqligini aks ettiradi. Harbiy xizmatchilar farzandlariga beriladigan ta'lim va tarbiya jamiyatning ma'naviy

qadriyatlarini saqlab qolish va yangi avlodga uzatishda muhim vosita bo'ladi. Harbiy xizmatchilarning farzandlariga ta'limda imtiyozlar berish ularning oilalarida barqarorlikni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, milliy xavfsizlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki harbiy xizmatchilar o'z ishlariga ko'proq diqqat qaratish imkoniga ega bo'ladilar. Farzandlarining ta'lim va tarbiyasiga e'tibor qaratish orqali davlat harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi va yoshlar o'rtasida bu sohani tanlash motivatsiyasini kuchaytiradi. Harbiy xizmatchilarning farzandlari ota-onalarining doimiy ko'chib yurishi yoki xizmat xususiyati tufayli ijtimoiy o'ziga xos muhitda o'sadi. Ular uchun maxsus ta'lim va qo'llab-quvvatlash dasturlari ularning jamiyatga integratsiyasiga yordam beradi. Harbiy xizmatchilar farzandlarining ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar farzandlarining ta'lim va tarbiyasiga e'tibor berish nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlash, balki jamiyatning barqarorligi va kelajagini mustahkamlashga qaratilgan strategik yondashuvdir. Bu falsafiy jihatdan inson qadr-qimmatini qadrlash, jamoatchilikni birlashtiruvchi ma'naviy asoslarni mustahkamlash va milliy xavfsizlikni kuchaytirish vositasi sifatida qaraladi.

Dissertatsiyaning **“Harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida shakllantirishning o'ziga xos jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida harbiy xizmatchilar farzandlarini ta'lim-tarbiyasini yuksaltirish mexanizmlari, harbiy xizmatchilar farzandlarini ta'lim-tarbiyasidagi o'ziga xosliklar va ularga davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, shuningdek, harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida shakllantirishning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

Barkamol shaxs haqidagi nazariy-falsafiy qarashlar ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, turli madaniyatlar va falsafiy maktablar tomonidan o'ziga xos yondoshuvlar bilan rivojlangan. Bu qarashlar insonning rivojlanishi, maqsadlari va ahloqiy qiyofasi bilan bog'liqdir. Harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida shakllantirish jarayonida jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, tarixiy tajribalar va hozirgi zamon texnologik taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy xususiyatlar katta ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilar farzandlarida bu jihatlar bir xil rivojlantirilishi kerak. Biror biri zaif bo'lsa, qolganlari ham salbiy ta'sirga uchrashi mumkin. Masalan, jismoniy salomatlik yo'qolganda aqliy va axloqiy yetuklikka ham zarar yetishi mumkin. Shu sababli, farzandlarning har tomonlama rivojlanishi uchun harbiy oilalarda intizom, tartib va mas'uliyat asosida tarbiyaga alohida e'tibor qaratish zarur. “Harbiy jamoalardagi ma'naviy boshqarish, bo'ysunish va nojo'ya harakatlarni tahlil qilish, bir-biriga o'rnak bo'lish, jamoa fikrini quvvatlash va ma'naviy-ruhiy holat ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, shaxsiy namuna harbiy xizmatchilar axloqini boshqarishda juda muhim. Harbiy jamoalarda axloqiy munosabatlarni shakllantirishdagi asosiy omillardan yana biri, bu - jamoa fikrining jamoa munosabatlari bilan uyg'unlashishidir”⁷.

⁷ Usmanov A.X. O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat majburiyatlari va axloqiy mezonlar // Academic research in educational sciences.Conference 2. –Toshkent,2023. – B. 34-36.

Dissertatsiyada harbiy xizmatchilar farzandlari uchun ta'lim jarayonida interaktiv va individual yondashuvlardan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan. Ta'lim jarayonida muammoga yo'naltirilgan o'qitish, rolli o'yinlar, tematik ta'lim kabi usullar bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolalarda ma'naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu qadriyatlar harbiy xizmatchilar farzandlarining shaxsiyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularni vatanparvar va burchga sodiq shaxs sifatida shakllantirishi mumkin. Harbiy xizmatchilar farzandlari uchun harbiy kasbni tanlash jarayonida ularni maqsadli ravishda tayyorlash, kasbiy yo'nalishlarda dasturlarni amalga oshirish muhimdir. Bu jarayonda kasbga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va maxsus kurslar orqali yoshlarni harbiy sohaga tayyorlash, shuningdek, harbiy an'analar va harbiy xizmatning ma'naviy ahamiyati bilan tanishtirish mumkin. Yuqoridagi mexanizmlar harbiy xizmatchilar farzandlarining ta'lim-tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi va ularning o'ziga xos tarbiya jarayonini tushunishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonlarda harbiylikning o'ziga xos ma'naviy va ijtimoiy jihatlari ham muhim hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar farzandlarini tarbiyalashda milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar alohida o'rin tutadi. Yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda axloqiy qadriyatlarni singdirish, ularning milliy o'zlikni anglash hissini rivojlantirish dolzarbdir. Bu jihatlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, jamiyat uchun foydali shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida shakllantirish jarayoni ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, bu jarayon tarbiya, ijtimoiy muhit va faoliyatning bir-biriga bog'liq holda olib borilishini talab qiladi. Bola jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan rivojlanib, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri tarbiya va ta'lim berilishi zarur. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy islohotlarni davom ettiramiz. Buning uchun birinchi navbatda aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri bo'lib qoladi"⁸.

Dissertant ijtimoiy-madaniy modellar farzandlarning tarbiyasi, ta'limi va umuman shakllanishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tahlil etgan. Bu modellar orqali ota-onalar, jamoa va davlat darajasida tarbiya tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Harbiy xizmatchilar tarbiyasining falsafiy asoslari, ularning tarbiyaviy maqsadlari va metodologiyalari qanday bo'lishi kerakligi bilan bog'liq. Falsafiy yondashuvlar tarbiya jarayonida qanday qadriyatlar va normativlar asosida ishlashni aniqlaydi.

Harbiy xizmatchilar farzandlariga qat'iyatlilik, mas'uliyat va tartibni o'rgatishga alohida e'tibor beradilar. Bu farzandlarning ijtimoiy va shaxsiy

⁸ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: Тасвир, 2020. – Б. 41.

hayotida samarali bo'lishi uchun zaruriy ko'nikmalardir. Harbiy xizmatchilar o'z farzandlariga vatanparvarlikni va milliy qadriyatlarni singdirishga intiladilar. Bu orqali ular o'z yurtlariga bo'lgan muhabbat va hurmatni rivojlantiradilar. Farzandlarni jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlash, ular uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport va boshqa faoliyatlarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratadilar. Bu, ularga chidamlilik va o'zini anglashni rivojlantirishda yordam beradi. Harbiy xizmatchilar farzandlariga muammolarni hal qilish, yetakchilik qilish va stressli vaziyatlarda samarali ishlash ko'nikmalarini o'rgatishga harakat qiladilar. Bu ko'nikmalar hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir. Harbiy xizmatning cheklangan vaqt tizimi sababli, ota-onalar farzandlari bilan sifatli vaqt o'tkazishga e'tibor qaratadilar. Bu vaqt davomida o'zaro aloqalarni mustahkamlash va tarbiya berish uchun imkoniyat yaratadi. Harbiy xizmatchilar ko'pincha o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga majbur bo'lganligi sababli, ular farzandlariga ham moslashuvchanlikni o'rgatishga harakat qiladilar. Bu hayotdagi o'zgarishlarga tez moslashishga yordam beradi. Harbiy xizmatchilar oilada uyushganlik va hamkorlikni rivojlantirishga intiladilar. Bu farzandlarning ijtimoiy ko'nikmalarini va oilaviy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu jihatlar harbiy xizmatchilarning farzandlarini tarbiyalashda o'ziga xos yondashuvni aks ettiradi va ular orqali barkamol, mas'uliyatli va vatanparvar avlodni shakllantirishga intiladilar.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, harbiy xizmatchilar farzandlarini shakllantirishda ta'limning roli beqiyosdir. Ta'lim bu jarayonda faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun asosiy omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-falsafiy qonuniyatlar nuqtai nazaridan, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish bilan birga, ta'lim va tarbiya jarayoni harbiy oilalardagi bolalarning ijtimoiy rolini to'g'ri shakllantirishda muhimdir. Bu jarayonda o'qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi muhim shaxslar hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar farzandlarining rivojlanishida ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqdir. Bunda nafaqat ta'lim va tarbiya vositalari, balki jamiyatda mavjud ijtimoiy-madaniy sharoitlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali harbiy oilalardagi bolalar bilim va axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, bu jarayonda ularning ma'naviy ehtiyojlari, jumladan, milliy qadriyatlarga, axloqiy tamoyillarga sadoqat, yuksak ideallarga intilish ehtiyojlari ham rivojlanib boradi. Yoshlar orasida texnologiyalarga, zamonaviy bilimlarga va turli xil madaniy o'zgarishlarga moslashish ehtiyojlari paydo bo'ladi. Bu ehtiyojlar, o'z navbatida, ularning rivojlanishi va jamiyatga qo'shgan hissalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilar farzandlari ko'pincha jamoat hayotida faol ishtirok etish, davlat xizmatiga kirish va xalqaro miqyosda faoliyat yuritishga moyil bo'lib ulg'ayadilar. Ma'naviy-estetik qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar orqali barkamol shaxs yetishib chiqadi, bu esa nafaqat harbiy oilalar uchun, balki jamiyat uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O'zbekiston shart-sharoitlarida harbiy xizmatchilar farzandlarini barkamol shaxs sifatida shakllantirish**

